

ARAB TILIDA IZOFA BIRIKMASI

Shodmonqulov Islomjon Sadriddin o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ishodmonqulov82@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada asl arab manbalariga tayangan holda arab tilida “Izofa” birikmasiga oid muhim qoidalar keltirilgan. Arab tili o'rganuvchilari uchun ba'zan qiyinchiliklarni tug'diradigan, murakkab qurilishlardan tashkil topgan muzof va muzoh ilayhning o'zaro aloqasi hamda izofa birikmasining gap tarkibidagi holatlari ko'rsatib o'tilgan. Nahv olimlari asarlaridagi izofa birikmasining ma'naviy va lafziy turlari ham o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: izofa birikmasi, muzof, muzof ilayh, aniqlanmish, aniqlovchi, sifat.

Аннотация. В данной статье на основе оригинальных арабских источников приведены важные правила, касающиеся словосочетания «Изафета» в арабском языке. Показаны взаимосвязь между музафом и музаф илайхи, а также положение изафетного словосочетания в структуре предложения, что иногда вызывает трудности у изучающих арабский язык из-за его сложного построения. Также изучены два вида изафы, упомянутые в трудах учёных по грамматике (нахв).

Ключевые слова: изафетное сочетание, музаф, музаф илайх, определяемое, определяющее, определение.

Annotation. This article presents important rules regarding the “Status” construction in the Arabic language, based on original Arabic sources. It highlights the relationship between mudaf and mudaf ilayh, as well as the position of the status construction within sentence structure, which can sometimes pose challenges for learners of Arabic due to its complex formations. The two types of status construction, as described in the works of grammar scholars (nahw), are also examined.

Keywords: status construction, muzaf, muzaf ilayh, determined, determiner, attribute.

Izofa – arab tilida qaratqich kelishikli birikma hisoblanib, bu birikma nahv (sintaksis) fanida o'rganiladi. O'zbek tilida qaratqich kelishigi ikki: aniqlovchi va aniqlanmish jihatidan o'rganilganidek, arab tilida ham izofa ikki qism مضاف muzof (aniqlanmish) hamda مضاف إليه muzof ilayh (aniqlovchi)dan tashkil topadi.

Masalan, “كِتَابُ زَيْدٍ” Zaydning kitobi birikmasida

kitob - muzof, Zayd - muzof ilayhdir.

Arab tilida muzof ilayh doimo majrur (qaratqich kelishigi) holda bo'ladi. Ulamolar “izofa” so'zi lug'atda “qo'shish”, “suyantirish” yoki “nisbat berish”

ma'nolarida kelishini aytishadi. Shunga ko'ra bu atamaga olimlar turlicha ta'rif aytishgan, jumladan, Ibn Hishom al-Ansoriy o'zlarining "Shuzuruz zahab" kitoblarida "Izofa bir ismning boshqasiga suyantirilishi", Fozil as-Somuroiy o'zlarining "Ma'anin nahv" kitoblarida "Izofa bir ismning boshqasiga nisbat berilishi" deya aytib o'tishgan.

Izofaga oid bir qancha hukmlar bor¹:

- agar muzof birlik so'z bo'lsa, undan "tanvin" olib tashlanadi: **لِبَاسٌ أَخِي**;
- agar muzof ikkilik yoki ko'plik bo'lsa, ulardan oxiridagi "nun" olib tashlanadi: **مُتَعَلِّمًا قَرِيَّةً، مُتَعَلِّمُوا قَرِيَّةً**;
- muzof noaniq ism bo'lishi shart, shuning uchun ham muzofda aniqlik artikli bo'lmasligi lozim, ammo bundan ikki holat istisno qilinadi:
 1. Muzof sifat bo'lib, harakatlar bilan tuslanadigan bo'lishi: **الضَّارِبُ زَيْدٌ، الضَّارِبُ زَيْدٌ**
 2. Muzof sifat bo'lib, muzof ilayh uning ta'siridagi so'z bo'lishi va unda "Al" aniqlik artikli bo'lishi kerak: **الضَّارِبُ الرَّجُلُ، الرَّائِبُ الْفَرَسُ**;
- ism o'zining sinonimiga yoki ma'nodoshiga izofa qilinmaydi;
- umumiy ma'nodagi so'zni xosroq ma'nodagi so'zga izofa qilish mumkin: **شَهْرٌ رَمَضَانٌ**;

Izofa ikki qismga: ma'naviy va lafziy izofaga bo'linadi². Ma'naviy izofa bu – xoslikni yoki aniqlikni ifoda etadigan izofa zanjiridir. Bunda muzof sifat, muzof ilayh esa uning ta'siridagi so'z bo'lmasligi lozim.

Masalan, **بَكْرٌ دَارُ بَكْرٍ** *Bakrning uyi* birikmasida muzof - uy sifat emas, muzof ilayh - Bakr esa uning ta'siridagi so'z bo'lmadi.

Bu turdagi izofa yuqorida ta'kidlanilganidek, ikki ma'noni: xoslik yoki aniqlikni ifoda etadi. Agar muzof ilayh aniq ism bo'lsa, unda izofa ham aniqlikni bildiradi:

سَعِيدٌ كِتَابٌ سَعِيدٍ *Saidning kitobi* birikmasida *Said* atoqli nom bo'lganligi sababli aniq ism hisoblaniladi.

Unga izofa qilingan kitob so'zi esa, izofa tufayli aniqlashdi. Ammo **كِتَابٌ رَجُلٍ** *erkak kishining kitobi* birikmasida erkak kishi turdosh ot bo'lganligi sababli noaniq ism hisoblaniladi, hamda unga izofa qilingan kitob so'zi xosroq ma'noga ega bo'ldi. Ya'ni har qanday kitob emas, balki aynan erkak kishining kitobi bo'lish bilan xoslandi. Bu izofani tuzishdan maqsad ma'naviy ma'noni ifoda etish bo'lganligi sababli ham ma'naviy izofa deb nomlangan. Ba'zi nahvchilar esa bu izofa turini haqiqiy izofa deb nomlashadi, chunki izofani uzish mumkin emas.

Izofaning bu turini nahv ulomalari 3 qismga bo'lishadi³:

1. **في** - harfi taqdirida bo'lgan izofa. Agar muzof ilayh muzof uchun zorf bo'lganda kuzatiladi: **عَالِمٌ فِي الْمَدِينَةِ** *Molik Madina shahrining olimidir*, ya'ni aslida **عَالِمٌ فِي الْمَدِينَةِ** bo'lgan.

¹ ابن هشام الأنصاري. شرح قطر الندى وبلا الصدى. دار اليسر – الجزائر – ٢٠٢٠

² شيخ مصطفى الغلابي. جامع الدروس العربية. دار الغد الجديد – القاهرة – ٢٠٠٧

³ ابن هشام الأنصاري. شرح شذور الذهب. دار اليسر – الجزائر – ٢٠١٧

2. *مِنْ* - harfi taqdirida bo'lgan izofa. Agar muzof qism, muzof ilayh esa butun bo'lsa shu ma'no qasd qilingan bo'ladi: *هَذَا خَاتَمٌ حَدِيدٍ* Bu temirdan yasalgan uzuk, ya'ni aslida *مِنْ خَاتَمٍ مِنْ حَدِيدٍ* bo'lgan.

3. *لَام* harfi taqdir qilinadigan izofa. Bu boshqa barcha o'rinlardir, hamda bu izofa turi juda ham keng tarqalgan. *غُلَامٌ لَزَيْدٍ* Zaydning quli, ya'ni aslida *غُلَامٌ لَزَيْدٍ* bo'lgan.

Ammo ba'zi keyingi olimlar izofada bu kabi harflarni taqdir qilishni mumkin emasligini aytishadi⁴. Bunga dalil sifatida esa *عِنْدَ خَالِدٍ مَالٌ* kabi misollarda hech qanday jar harflarini taqdir qilish mumkin emasligini keltirishadi. Shuningdek, izofa qaysidir jar harfini taqdir qilishdan ko'ra kengroq ma'nolarda kelishi ham ko'p uchraydigan hol. Bu turdagi izofada muzof muzof ilayh darajasida aniqlashadi, masalan, atoqli ismga izofa qilingan ism ham atoqli ism darajasidagi aniq ism bo'ladi: *أَخُو زَيْدٍ*.

Lafziy izofa (yoki haqiqiy bo'lmagan izofa) bir nechta shartlar bilan yuzaga keladi, ular:

1. Muzof sifat bo'lishi kerak, arab tilida esa sifat uchta: ismi foil, ismi maf'ul va sifati mushabbaha.

2. Muzof ilayh ma'noda muzof ta'siridagi so'z bo'lishi lozim. Shu ikki shart topilgandagina lafziy izofa qilish mumkin bo'ladi: *هَذَا ضَارِبٌ زَيْدٍ*.

Izofaning bu turi lafziy deb nomlanishiga sabab, izofa talaffuzda yengillik yaratish uchun qo'llanilishidir. Yuqoridagi misolning asli *هَذَا ضَارِبٌ زَيْدًا* edi, arablar so'z o'rtasida sukunli so'zlarni talaffuz qilishga qiynalishgan, shu sababli tilga yengillik bo'lishi uchun sukundan izofa uslubida voz kechishgan. Lafziy izofa aniqlikni ham, xoslikni ham ifodalamaydi. Shu sababli ham *مَرَرْتُ بِرَجُلٍ حَسَنَ الْوَجْهِ* deya aytib, noaniq ismga sifat o'laroq izofani keltirishimiz mumkin. Ammo ma'naviy izofada bu kabi birikma xato bo'ladi: *مَرَرْتُ بِرَجُلٍ أَخِي زَيْدٍ*.

Shuningdek ba'zi so'zlar ma'naviy izofa qilingan taqdirda ham ular nakira ismligicha qolaveradi, misol uchun *غَيْرٌ* kalimasining muzof ilayhisi ma'rifa bo'lganda ham, kalimaning o'zi nakira holida qoladi, hamda nakira so'z uchun sifat bo'lishi mumkin bo'ladi: *جَاءَ رَجُلٌ غَيْرُكَ*, ya'ni *Sendan boshqa bir kishi keldi*. Ko'rib tuganingizdek, kalima olmoshga izofa qilindi, ammo nakira ism - *رَجُلٌ* uchun sifat bo'lib keldi. Bunday so'zlar sanoqli "مَثَلٌ، شَبَهٌ، نَظِيرٌ" kabi. Nahv ulamolari bu so'zlarni "الْأَسْمَاءُ الْمُتَوَعِّلُ فِي التَّنْكِيرِ وَالْإِبْهَامِ" ya'ni, noaniqlikka cho'kkan ismlar deb nomlashadi.

Ba'zi holatlarda esa, muzof muzof ilayhdan muannaslik yoki muzakkarlikni o'tkazib olishi mumkin⁵. Bu esa muzofni tushirib qoldirish to'g'ri bo'lishi sharti bilan amalga oshadi.

Misol uchun *قُطِعَتْ بَعْضُ أَصَابِعِي* ya'ni, *barmoqlarimning ba'zisi kesildi*, misolida muzof - *بَعْضُ* kalimasi muzakkar jinsda, ammo uning fe'li - *قُطِعَتْ* muannas jinsda.

Bunga sabab esa, muzofning gapdan olib tashlash to'g'ri bo'lishi *قُطِعَتْ أَصَابِعِي* ya'ni *barmoqlarim kesildi*, deya gapdan muzofni tushirib qoldirish to'g'ri bo'ldi. Shu

⁴ شيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. دار الغد الجديد - القاهرة - ٢٠٠٧

⁵ أيمن أمين عبد الغني. النحو الكافي. دار التوفيقية - القاهرة - ٢٠١٠

sababli ham fe'l muzofning jinsida emas, balki muzof ilayh jinsida kelishi to'g'ri bo'ldi. Ba'zan esa buni aksi ham ro'y berishi mumkin.

Misol uchun, {إِنَّ رَحْمَتَ اللَّهِ قَرِيبٌ} oyatida ismi inna - رَحْمَةٌ muannas jinsda, ammo uning xabari - قَرِيبٌ muzakkar bo'lgan. Bunga sabab yuqorida aytganimizdek, muzofni gapdan olib tashlash to'g'ri bo'lishidir. Ammo agar bu shart topilmasa, u gapni aytish xato bo'ladi, xususan bunaqa deyilmaydi: خَرَجْتُ غُلَامٌ هُنْدٌ ya'ni Hindning xizmatchisi chiqdi. Negaki muzofni tushirib yuborsak, ma'noga zarar yetadi va biz qasd qilgan ma'no hosil bo'lmaydi.

Shu o'rinda "mutakallim yo" siga izofa qilingan ismni ham eslab o'tishimiz lozim. Bilamizki, "mutakallim yo" siga izofa qilinuvchi ism "yo" ga munosib o'laroq doim kasrali holda bo'ladi: كِتَابِي kabi. Ammo ba'zi bir o'rinlarda o'zgarishlar ham kuzatilishi mumkin, misol uchun, maqsur (oxiri alif bilan tugagan) ismga mutakallim yosi izofa qilinganda, "yo" fathali qilinadi: عَصَى - عَصَا. Manqus (oxiri "yo" harfi bilan tugagan) ismga "mutakallim yo" si izofa qilinsa, bir "yo", boshqa bir "yo" ga kirgizib yuboriladi: قَاضِي - قَاضِي kabi. Ikkilikda esa raf holatda "alif" va "yo", nasb va jar holatda ikki "ya" hosil bo'ladi: غُلَامَي - غُلَامَي kabi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ikkilik va sog'lom muzakkar ko'plikning "nun" lari tushirib qoldiriladi. Sog'lom muzakkar ko'plikda esa, har uchchala holatda, ya'ni raf, nasb va jar holatlarda ikki "ya" holida bo'ladi: مُعَلِّمِي so'zi aslida مُعَلِّمُونَ edi, so'ng "mutakallim yo" si izofa qilingani sababli "nun" tushirib yuborildi, shunda مُعَلِّمُوِي hosil bo'ladi, hamda sarfdagi mashhur qoidaga ko'ra, ya'ni "vav" va "yo" bir kalimada yonma-yon kelsa, "vov" harfi "yo" ga o'zgartiriladi⁶. Natija esa مُعَلِّمِي bo'ladi.

Arab tilida ba'zi so'zlar jumlagi izofa qilinishi ham mumkin⁷. Bu kalimalar: إِذْ، إِذَا جَاءَ عَلَيَّ أَكْرَمْتُهُ. Masalan: إِذَا جَاءَ عَلَيَّ ya'ni, agar Ali kelsa, uni ikrom qilaman, jumlasida shart jumlasini - إِذَا جَاءَ عَلَيَّ - o'rinda bo'ladi, negaki u muzof ilayhdir.

Xulosa o'rnida shuni aytmog'imiz lozimki, izofa birikmasi mavzusi arab tilida muhim va e'tibor qaratish lozim bo'lgan mavzulardan biri. Arab olimlari o'zlarining nahv ilmiga oid asarlarida izofa birikmasini batafsil yoritib berishgan. Izofa birikmasini shartlari, o'ziga xos qoidalarini yaxshi bilgan holda qo'llashimiz zarurdir. Shuningdek, izofaning birikmasining turlari va ularning farqli jihatlarini ham o'rganib, ularni farqlay olishimiz kerakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ابن هشام الأنصاري. شرح شذور الذهب. دار اليسر - الجزائر - ٢٠١٧
2. ابن هشام الأنصاري. شرح قطر الندى وبلا الصدى. دار اليسر - الجزائر - ٢٠٢٠
3. أيمن أمين عبد الغني. النحو الكافي. دار التوفيقية - القاهرة - ٢٠١٠
4. شيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. دار الغد الجديد - القاهرة - ٢٠٠٧
5. علي الجارم بك، مصطفى أمين بك. النحو الواضح. دار التوفيقية - القاهرة - ٢٠١٥

⁶ علي الجارم بك، مصطفى أمين بك. النحو الواضح. دار التوفيقية - القاهرة - ٢٠١٥

⁷ شيخ مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. دار الغد الجديد - القاهرة - ٢٠٠٧